



XORAZM DOSTONCHILIK MAKTABLARINING ADABIY MEROSI

Choriyev Nurbek Jumanazar o`g`li

Termiz davlat universiteti 1-kurs talabasi

Telefon raqam: +998881861227

e-mail: choriyevnurbek357@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada dostonchilik maktablari, Xorazm dostonchilik maktabi, undan qolgan adabiy meros, uning baxchichilik san`atiga qo`shgan hissasi hamda bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan .

**Kalit so`zlar:** doston, dostonchilik maktablari, baxchichilik, Xorazm dostonchilik san`atining adabiy yodgorligi.

ABSTRACT: This article reveals the schools of saga, The Khwarezmian school of saga, the literary legacy left of it, its contribution to the art of bakhshism, as well as its importance today.

Keywords: epic, epic schools, bakhshism, Khwarazm literary monument of epic art.

АННОТАЦИЯ: В этой статье раскрываются школы эпоса, Хорезмская школа эпоса, литературное наследие, оставшееся от него, его вклад в искусство бахшизма, а также его значение сегодня.



Ключевые слова: эпос, школы эпоса, бахшизм, литературный памятник Хорезмского эпического искусства.

Mamlakatimiz xalq ogʻzaki ijodi gʻoyat badavlat va u uzoq oʻtmishga borib taqaladi. Xalq ogʻzaki ijodi aynan jamiyatimizning asosini tashkil etadi hamda u bizga oʻzligizmi koʻrsatib beradi, milliy anʼana va qadriyatlarimizni saqlab qoladi. Xalq ogʻzaki ijodining eng keng tarqalgan janrlaridan bir - bu doston. Doston- "qissa", "hikoya", "tarix", sarguzasht, taʼrif va maqtov maʼnolarini anglatadi¹. Ammo atama sifatida folklor-xalq ogʻzaki ijodidagi epik turga mansub, sheʼriy va nasriy parchalardan iborat, maʼlum bir qahramonlar hayoti, taqdirini tasvirlab beruvchi yirik hajmdagi, maxsus ijrochilar tomonidan kuylanuvchi asarga nisbatan qoʻllaniladi. Ayni paytda doston atamasiga muqobil ravishda epos termini ham ishlatiladi. Epos - yunoncha "epos" - rivoyat, hikoya, qoʻshiq soʻzidan olingan boʻlib, badiiy adabiyotda voqea, hodisani bayon qilish, hayotiy lavhaning tafsilotlarini ifodalash maʼnosini anglatadi. Vatanimizda dostonlar bugungi kungacha va hozir ham oʻrganilib kelinmoqda, qadimdan doston oʻlkamizning har bir hududida ravnaq topgan, ammo Xorazm dostonchiligi bu oʻrinda alohida ahamiyat kasb etadi. Qadimgi Xorazm oʻz mustaqilligiga, ilm-faniga, adabiyoti ,jumladan, xalq ogʻzaki ijodi, ayniqsa, dostonlariga ega boʻlgan davlat sifatida shakllana olgan.

Endi doston kuylovchilar haqida oʻz fikrlarimizni bildirib oʻtsak. Doston kuylovchilar baxshi deyiladi. "Baxshi" soʻzining "Oʻzbek tilining izohli lugʻati"da toʻrt xil maʼnosi mavjud: 1-donishmand, 2- dostonlarni kuylovchi, 3- dam solib davolovchi tabib, 4-Buxoro xonligida qurilish mablagʻini nazorat qiluvchi. H.T.Zarifovning maʼlumot

¹Mirzayev T. va boshqalar. Oʻzbek folklori /Darslik. – Toshkent: "Tafakkur boʻstoni", 2020.



berishicha, baxshi mo'g'ulcha va buryatcha "baxsha", "bag'sha" so'zlaridan olingan bo'lib, "ustod", "ma'rifatchi" ma'nolarida qo'llangan. Baxshilar o'z dostonlarini do'mbira, ayrimlari qo'biz yoki dutor jo'rligida, ichki ovozda ijro qilishgan. Xorazm baxshilari o'z dostonlarini, asosan, dutorda ijro qilishgan, ularga ijro jarayonida g'ijjak va bulomonda sozandalar jo'r bo'lishgan. XX asrning 30-yillaridan boshlab Xorazm baxshilari tor va rubob jo'rligida ham kuylay boshlashdi. Ayrim baxshilar o'z to'piga doirachi va o'yinchini ham olib kirishdi. Xususan, Bola baxshi to'pi bunga misol bo'la oladi. Xorazm baxshilari epik asarlar yoki ularning parchalarini garmon sozi bilan ijro qilisha o'tishdi. Bunday holatda ular sozchi deb yuritiladi. Masalan: Qurbon sozchi, Qodir sozchi va boshqalar. Sozchilar epik asarlarni to'liq ijro qilishdan ko'ra undan parchalar, termalar, o'zlari yaratgan asarlarni kuylashga alohida e'tibor berishgan.

Demak, epik asarlarni elga yetkazishda O'zbekistonning deyarli barcha yerlarida yakka ijrochilik hukmron bo'lsa, Xorazmda, asosan, jamoaviy ijrochilik yetakchilik qiladi. Ijro davomida dostonlarning she'riy qismlari kuylansa, prozaik o'rinlari baxshilarning o'zlariga xos ifodali tilida bayon etiladi.

Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlarning yana bir turi xalfalar, deb yuritiladi. Xalfachilik, asosan, ayollar orasida keng tarqalgan.

Xalfachilik san'ati ikki xil: a) ansamblli xalfalar; b) yakka xalfalar. Ansamblli xalfalar uch kishidan iborat. Ya'ni ustoz xalfa (ayni vaqtda garmon chaladi va ashula aytadi), doirachi (ashulaga jo'r bo'ladi, ba'zan raqsga tushadi) va o'yinchilar (raqsga tushadi, qayroq bilan o'ynaydi, yalla va lapar aytadi, ba'zan doira chaladi) birlashib, ansamblni tashkil etadilar. Bu tip xalfalar xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalarni, to'y qo'shiqlarini, lapar va yallalarni, o'zlari yaratgan yoki boshqa ijodkorlar asarlarini



garmon va doira joʻrligida kuylaydilar. Bibi shoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova kabilar shunday xalfalardandir.²

Yakka xalfalar doston va qoʻshiqlarni sozsiz ijro etadilar. Ular dostonlarni yoddan yoki qoʻlyozma va kitobdan yoqimli ohangda oʻqish, “Yor-yor”, “Kelin salom”, “Muborak” kabi toʻy qoʻshiqlarini ijro etish bilan shuhrat qozonganlar. Robiya Matniyozov qizi, Saodat Xudoyberganova, Poshsho Saidmamat qizi, Ambarjon Roʻzimetova, Anorjon Razzoqova kabilar yakka holda xalfachilik qilganlar.

Xalfalar koʻproq “Oshiq Gʻarib va Shohsanam”, “Oshiq Oydin”, “Asilxon”, “Hurliqo va Hamro”, “Qumri”, “Qissayi Zebo”, “Tulumbiy”, “Zavriyo”, “Durapsho”, “Bozirgon”, “Xirmon dali” kabi dostonlarni, Maxtumluli sheʼrlarini, turli marosim qoʻshiqlarini va oʻzlari yaratgan asarlarni ijro etadilar.³

Endi dostonchilik maktablari haqida maʼlumot beramiz. Muayyan doston varianti jamoa va individual ijod birligi jarayonida yuzaga kelgan mahsul ekan, unda kuylovchining ijrochilik va ijodkorlik faoliyati asrlar davomida shakllangan ogʻzaki epik anʼanalar doirasida namoyon boʻladi. Bu hol barcha baxshilar uchun umumiy tomonlarni, muayyan dostonchilik qoliplarini yuzaga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, umumlashgan puxta epik anʼana doirasida maʼlum baxshi yoki baxshilar guruhiga xos alohida ijodiy xususiyatlar, yoʻllar, uslublar oʻzgachaligi mavjud. Folklorshunoslikda buni shartli ravishda dostonchilik (baxshichilik) maktablari deb yuritiladi.

Hozirgi kunda oʻzbek folklorshunosligida Bulungʻur, Qoʻrgʻon, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, Janubiy Tojikiston, Xorazm kabi poetik dostonchilik maktablari- baxshichilik

² Joʻrayev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2009.

³ Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. – Toshkent: “Musiq” nashriyoti, 2010



san'atining ajoyib markazlari aniqlangan.⁴ Xorazm dostonchilik maktabi boshqalaridan ajralib turadi. Ya'ni bu yerdagi baxshilar uslubi o'zga maktablardan jiddiy farq qiladi. Bu hududa so'z improvizatsiyasi asosiy rol o'ynamaydi, matn tom ma'noda variant bermaydi, balki musiqa yetakchilik qiladi. Ko'pchilik hollarda yozma manbaga ega Xorazm dostonlarining ba'zan aytuvchi qo'lyozma matni ham bo'ladi.

Xorazm baxshilarining kuylari ko'p va xilma-xildir. Dostonning har bir qo'shig'i muayyan kuyda ijro etiladi. Dostonchilar bularni baxshi yo'llari yoki baxshi na'malari deb yuritadi.

Xorazm dostonchiligi repertuar tarkibi jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, bu yerda qahramonlik dostoni "Alpomish" uchramaydi, aksincha, Xorazm baxshilari repertuaridagi ishqiy-romanik dostonlarning aksariyati respublikamizning boshqa yerlarida mavjud emas. Xorazm dostonchilik maktablarining adabiy merosini "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Oydin", "Asilxon", "Hurliqo va Hamro", "Qumri", "Qissayi Zebo", "Tulumbiy", "Zavriyo", "Durapsho", "Bozirgon", "Xirmon dali" dostonlari tashkil etadi. Endi "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" - ishqiy-romantik doston. O'ra Osiyo va Yaqin Sharqda turli variant va versiyalarda keng tarqalgan: "Oshiq G'arib va Shohsanam", "G'arib va Sanam", "G'arib Oshiq", "G'aribjon" kabi nomlar bilan mashhur. Dastlabki varianti Ozarbayjon yoki Turkiyada XIV asrda yaratilgan. 1956-yilda taniqli folklorshunos olimi Zubayda Husainova bu dostonning mavjud variantlari asosida tayyorlagan yig'ma variantini nashr ettirdi. Dostonning ushbu nashrida Bola baxshi- Qurbonnazar Abdullayev, Fozil Yo'ldosh o'g'li va Ro'zimbek Murodov variantlari hamda "Oshiq G'arib va Hilola

⁴Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2013



pari” dostonining (sobiq) Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti folklor arxivida saqlanayotgan qo`lyozmasidan foydalanilgan. Ushbu dostonning og`zaki ravishda Bola baxshi, Qodir sozchi, Xudoyberdi O`tagan o`g`li, Madraim Matchon o`g`li, Tursun baxshi, Fozil Yo`ldosh o`g`li, Murod baxshi variantlari bor.

Bu dostonda monogom oilaviy munosabat- faqat bitta ayolni sevish va u bilan yashash bosh g`oyadir. Dostonda qadimgi Xorazm zaminida matriarxatning so`nishi va patriarxat tuzumi ijtimoiy munosabatlarning paydo bo`lishi, ana shu jarayon bilan bog`liq holda yakka er-xotinlik asosida yangi turdagi oilaning paydo bo`lishi davri o`z badiiy ifodasini topgan. Variantlarning hammasida dostonning asosiy syujeti saqlanadi; umumiy g`oyaviy yo`nalish bir xil. Farqlar ayrim epizodlarning qo`shilishi, tushirib qoldirilishi va variant matnining badiiylik darajasi hamda motivlarning ishlanishida yaqqol ko`rinadi.

Tarixiy-ijtimoiy va iqtisodiy-maishiy munosabatlar natijasida doston syujetini tashkil etuvchi motivlar silsilasi hamisha rivojlanib, takomillashib, ba'zan esa ayrim uzvlarni yo`qotib, yangilanib borgan. Ya'ni ko`pchilik variantlarda mavjud - hukmdorlarning oldidan bo`g`oz jonivorlarning chiqishi, G`aribning oldiga Shayton alayhilananing chiqishi kabi motivlar bevosiya xalq ertaklaridan o`tgan.

"Oshiq G`arib va Shohsanam" dostonidagi har bir she`riy parchaning maxsus nomlangan kuy bilan ijro qilinishi uning tarkibida aruz vaznidagi she`rlarning nisbatan ko`proq bo`lishini taqozo etadi. Shuningdek, yozma adabiyotdan xabardor bo`lgan kotiblar ham dostonni kitobat qilish davomida matnga o`zlarining ayrim g`azal va muxammaslarini kiritib yuborganlar. Shu tufayli aruz she`riy tizimi "Oshiq G`arib v Shohsanam" da boshqa dostonlarga qaraganda ko`proq qo`llanilgan. Dostonning ravon tili, uning tarkibidagi xalqning yuksak estetik dididan darak beruvchi badiiy bo`yoqdorlik asrlar osha silliqanib, sayqallanib yetuklik darajasiga o`sib chiqqan. Shu boisdan doston matnidagi ko`plab she`riy parchalar voha xalqi orasida qo`shiq sifatida keng tarqalgan.



Xulosa qilib aytganda, Xorazm dostonchilik maktabi, ayniqsa, o‘zining xalq og‘zaki ijodi va dostonchilik an‘analari bilan mashhur. Xorazm o‘rta asrlarda markaziy Osiyoning eng yirik madaniy va ilmiy markazlaridan biri bo‘lib, u o‘zining dostonchilik maktabi bilan ajralib turadi. Ushbu maktabning adabiy merosi ko‘plab qadimiy dostonlar, she‘rlar va qissalar orqali o‘z ifodasini topgan. Xorazm dostonchilik maktabining adabiy merosi o‘zining rang-barangligi, boyligi va xalqning ruhiyatini yoritishdagi muvaffaqiyatlari bilan alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda bu maktabning merosi nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shgan. Xorazm dostonchilik maktabi adabiy merosi bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotgan deb bo‘lmaydi, chunki adabiyotning zamonaviy uslublari va shakllari rivojlanayotgan bo‘lsa ham, Xorazm dostonchiligi o‘zining jasorati va ma‘naviy kuchi bilan xalqni birlashtiruvchi vosita sifatida qolmoqda. Bu maktab nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki insoniyatning umumiy madaniy merosi sifatida qadrlanadi. Xorazm dostonchilik maktabi xalqning tarixini, qadriyatlarini va madaniyatini saqlab qolishda ahamiyatli rol o‘ynagan va bundan keyin ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatishda davom etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzayev T va boshqalar. O‘zbek folklori/Darslik – Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2020
2. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2009.
3. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: “Musiqqa” nashriyoti, 2010
4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2013